

Mamlakatimizda ziyorat turizmini rivojlantirishda Imom al-Buxoriy ziyoratgoh majmuasining o'rni

Bakayev Ziyovuddinxon Toshbolta o'g'li

SamDu tadqiqotchisi, tel(93)3534600

Ziyovuddinxon.1992.26@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Imom al-Buxoriy majmuasida ziyoratchilarni qabul qilish bo'yicha ziyorat turizmi infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirish yo'llari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: turizm, ziyorat turizm, infratuzilma, ziyoratchi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются способы формирования и развития туристической инфраструктуры для паломников на комплексе Имама аль-Бухари.

Ключевые слова: туризм, Паломнические туризм, инфраструктура, паломник.

Annotation: This article explores ways to shape and develop tourism infrastructure for pilgrims at Imam Al-Bukhari Complex

Keywords: Tourism, Pilgrimage Tourism, Infrastructure, Pilgrimage.

Dunyo iqtisodiyotida turizm tez rivojlanayotgan va daromadi bo'yicha yetakchi sohalardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda turizm jahon eksportida o'zining ulkan hissasiga ega bo'ldi va butunjahon yalpi ichki mahsulotining 11%ini tashkil qilmoqda. Xususan, O'zbekistonda erishilayotgan muvaffaqiyatlar zaminida iqtisodiyotni liberallashtirishni chuqurlashtirish, mamlakatni modernizatsiyalash, barcha sohalarni, xususan, hizmat ko'rsatish sohasining etakchi tarmoqlaridan biri bo'lgan turizmni ham barqaror rivojlantirish yotibdi. O'zbekiston Respublika Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "O'zbekiston ham sayohat, ham ziyorat uchun qulay mamlakat. Chunki ona zaminimizda butun dunyoga ma'lum va mashhur bo'lgan ajdodlarimiz mangu qo'nim topgan. Ular qoldirgan boy ma'naviy-madaniy merosga xalqaro maydonda qiziqish juda katta. Sohani yanada rivojlantirish uchun, avvalo, zarur infratuzilmani takomillashtirish shart"¹[1].

Qadimgi Samarqandning me'morchilik yodgorliklari bilan tanishgan musulmon sayyohlar ko'pincha yana bir muqaddas ziyoratgohga borishni istab qoladilar. Bu ziyoratgoh, ayniqsa musulmon mamlakatlaridan tashrif buyurgan sayyohlar uchun bag'oyat qadrlidir. Chunki, bu yerda, o'z xizmatlari bilan islom dunyosida mashhur bo'lgan ulug' olim Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim al Buxoriy hazratlarinig maqbarasi joylashgan. Imom al-Buxoriy dafn etilgan joy Payariq tumanidagi Xartang kishlog'i bo'lib, bu yerda Buxoro xoni Abdullaxon tomonidan qurilgan masjid ham saqlangandir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari bilan mazkur majmua katta obodonchilik ishlari bajarilmoqda. Xususan,

¹ <https://oz.sputniknews-uz.com/tourism/20171004/6451356.html>

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 14-15 aprel kunlari Samarqand viloyatiga tashrifi davomida Imom Buxoriy majmuasi hududida xalqaro tajribani o'rgangan holda xalqaro ilmiy markaz qurilishi bo'yicha topshiriq berilgan edi. Shu munosabat bilan majmuaga tutash hududdan 5,8 gektar yer maydoni ochilib, ilmiy markaz hamda markaz qarshisida 3 ta uch qavatli turar-joy qurilishi uchun ajratib berildi. Prezidentimizning joriy yil 17-18 mart kunlari Samarqand viloyatiga tashrifi davomida bergan topshirig'i bilan Imom Buxoriy majmuasini qayta qurish loyiha-taklifi va Xartang qishlog'ining bosh reja-loyihasi ma'qullandi[2].

Hozirda Imom Buxoriyning qabri O'zbekistonga tashrif buyuruvchi mehmonlar uchun tabarruk ziyoratgohga aylangandir. Bugungi kunda Samarqand viloyati Payariq tumanida joylashgan Imom Al-Buxoriy majmuasi joylashgan joy "Ziyorat shaharchasi"ga aylanib bormoqda. Imom Buxoriy shaxsi islom dunyosida beqiyos. Nomini bilmagan musulmon deyarli yo'q. Uning xizmatini barcha muslim e'tirof etadi va umrida bir marta bo'lsa ham hazrat sag'anasini ziyorat qilishni istaydi.

Ziyorat turizmining kuchayishi mamlakatimizning moddiy salohiyatini yanada oshiradi. Mutaxassislar fikricha, agar birgina Imom Buxoriy majmuasi shaharchasi yiliga 100 — 150 ming xorijlik sayyohlarni qabul qilsa, ulardan tushadigan mablag' taxminan 300 — 400 million dollarni tashkil etishi mumkin. Qayta ta'mirlanayotgan majmuaga hozirdanoq yurtimizga qo'shni mamlakatlardan tashqari Saudiya Arabistoni, Turkiya, Indoneziya, Malayziya, Pokiston davlatlarining sayyohlik kompaniyalari katta qiziqish bildirayotgani bu boradagi raqamlar shunchaki taxminlar emasligini oydinlashtiradi.

Imom Buxoriy majmuasi yurtimizda sayyohlar uchun bir ziyorat joyining o'zida barcha infratuzilma yaratilgan birinchi ziyorat shaharchasi bo'ladi. Ushbu majmuasi va uning atrofi to'liq qayta qurilib va ta'mirlanib bo'lgach, majmuasi ichki va tashqi turizmning katta oqimini qabul qila boshlaydi. Xususan, Malayziyaning o'zidan yiliga 100 ming sayyoh kelishi kutilmoqda. Malayzialik ziyoratchilarning katta qismi hajdan oldin Imom Buxoriy maqbarasini doimiy ziyorat qilish istagida. Bu shunu ko'rsatadiki Malayziyadan bir yilda ikki yarim million musulmon hajga boradi. Biz shuncha ziyoratchini qabul qiladigan darajaga yetsak, Prezidentimiz tashabbusi bilan boshlangan ziyorat turizmining rivojiga olib keladi.

Ziyorat turizm zamonaviy turizm sohasining ajralmas qismi hisoblanadi. Dunyoda bir yarim milliarddan ko'proq musulmon bor. Agar ana shu musulmonlarning yarmi sahih hadislarini to'plab, islom dinining ikkinchi ishonchli manbasini yaratgan zot Imom Buxoriy hazratlarining xokipoylarini ziyorat qilishga kelsa, iqtisodiyotimizga ijobiy ta'sir etishi barchamizga ma'lum. Mamlakatimizda buncha ziyoratchini qabul qilish bo'yicha infratuzilma ham hali shakllanmagan. Din, tarix va madaniyat yodgorliklari ma'lum bir viloyat yoki shaharga tashrif buyurish uchun muhim ahamiyatga ega. Frantsiyada davlat himoyasi ostida bo'lgan yodgorliklarning taxminan 60 foizi ham turistik diniy ob'ektlar hisoblanadi.

Diniy turizmga bo'lgan umumiy qiziqishning rivojlanishi O'zbekistonda qadim tarixga borib qadalad. Shuni faxr bilan ta'kidlash kerakki, dunyo sivilizatsiyasiga, ilm-faniga, umuman, bashariyatning ham ma'naviy, ham moddiy

yuksalishiga beqiyos ulush qo'shgan ajdodlar borasida tarix bizni saxiylarcha siylagan: har qarich yerimiz muqaddas, har qarich yerimiz ziyoratgoh. Buyuk ajdodlarimiz xalqimizning orzu-maqsadini, quvvat-qudratini, tafakkur ko'lamini, ma'naviy olamini, did-saviyasini, tutum va madaniyatini namoyon qiladiki, ularning zakosi va aql-idrokiga qarab, dunyo biz bilan hisoblashadi, bizga baho beradi. Biz bugungi din niqobidagi zalolatga, razolatga aynan ana shu ajdodlar yo'li va tutumi, hikmati bilan oziqlanib, qarshi kurashamiz. Bu kurashda ular bizning qurolimiz, dalilimiz, bayrog'imiz bo'ladi. Prezidentimizning yurtimizda ziyorat turizmini yanada rivojlantirishga alohida e'tibor qaratayotgani zamirida ham ana shu ezgu maqsadlar mujassam. So'nggi 2 yil ichida O'zbekistonda muqaddas ziyoratgohlarni ziyorat qilgan sayyohlar, shuningdek, chet eldan diniy va ziyorat maqsadlarida sayohat qilganlar soni sezilarli darajada oshdi. 2018 yilda O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari soni 2017 yilga nisbatan 2,3 martaga ko'paydi.

Ushbu sayohatchilarning asosiy qismi MDH mamlakatlari hissasiga to'g'ri keladi. MDH davlatlaridan O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari 6015,9 ming kishini tashkil etgan bo'lib, bu jami tashrif buyurganlarning 93,5 % tashkil etadi, uzoq xorijiy davlatlardan esa 417,1 ming kishi (yoki 6,5 %) tashrif buyurgan. O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining asosiy qismi Qozog'iston Respublikasidan 2456,9 ming kishi (38,2 %), Tojikistondan 1700,7 ming kishi (26,4 %), Qirg'izistondan 1101,5 ming kishi (17,1 %), Rossiyadan 460,2 ming kishi (7,2 %). Uzoq xorijiy davlatlardan esa Turkiyadan 74,8 ming kishi (1,2 %), Xitoydan 37,1 ming kishi (0,6 %), Janubiy Koreyadan 32,7 ming kishi (0,5 %), Xindistondan 22,2 ming kishi (0,3 %), Germaniyadan 19,1 ming kishi (0,3 %), Yaponiyadan 17,2 ming kishi (0,3 %) tashrif buyurgan.

Asosiy ziyorat turizmi uch shaklga ega: ziyorat, diniy mavzular bo'yicha ekskursiyalar, ziyoratchilar va sayyohlar birlashadigan ixtisoslashtirilgan ekskursiyalar. Musulmonlar uchun ziyoratga borish – islomiy yodgorliklarni ziyorat qilish, muqaddas qadamjolarini borib ko'rish va rivojlantirish uchun xayr-ehson qilish maqsadida diniy xududlarni ziyorat qiladilar. Mamlakatimizda bu ziyorat deb nomlandi va bular dunyo musulmonlarining yurtimizga intilishini kuchaytirishi shubhasiz. Zotan, ziyorat faqat tomosha emas: u, eng avvalo, buyuklar ruhini his etish, ma'naviy-ruhiy muhitdan quvvat olish, ulug'lar maqomi va tutumini, tiriklik va hayot haqida eng azaliy haqiqatni anglash, qalbni shu haqiqat bilan boyitishdir.

O'zbekistondagi muqaddas qadamjolar va yodgorliklarni ziyorat qilishdan iborat bo'lgan "kichik Haj" dasturini shakllantirish va hududlarni 2019-2029 yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning turizmni rivojlantirish qismini ishlab chiqishda quyidagi masalalarni hisobga olish lozim, deb o'ylaymiz:

- hududlarda madaniy meros ob'yektlarining mahalliy ro'yxatlarini shakllantirish va doimiy yangilab borishini ta'minlash;
- mahalliy hokimiyat va tegishli soha xodimlari bilan hamkorlikda mintaqalarda joylashgan tarixiy obida va yodgorliklarga olib boruvchi infratuzilmani shakllantirish maqsadida ularning elektron xaritalari, pasport va kadastr hujjatlarini tayyorlash;

- hududlarda joylashgan muqaddas qadamjolar va yodgorliklarni turistik dasturlarga kiritish choralarini ko'rish, ushbu qadimiy yodgorliklar tarixi va u yerda saqlanib qolgan an'anaviy madaniyatni keng targ'ib etish;

- hududlardagi o'rganilmagan tarixiy obida va yodgorliklarni turoperator va boshqa tegishli mutaxassislar bilan birgalikda tadqiq etish hamda ma'lumotlar bazasini yaratish;

- turizm sohasidagi oliy o'quv yurtlaridagi mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida hududlarda joylashgan tarixiy obida va yodgorliklar bilan yaqindan tanishtirish bo'yicha amaliy darslarni tashkil qilish;

- turizm sohasining mazmun-mohiyati, uning ahamiyati, rivojlanishi natijalari, iqtisodiy va ijtimoiy funksiyalari bo'yicha turli seminar-treninglar tashkil qilish va boshqalar.[6]

Turizmning hozirgi holatini baholar ekanmiz, shuni qayd etish muhimki, O'zbekistonda infratuzilmaning rivojlanish darajasi chet ellik turistlarning ehtiyojlarini to'liq qondira olmayapti. Infratuzilmaning rivojlanmaganligiga raqobat va takomillashishni rag'batlantirish imkonini bermagan avvalgi ma'muriy-buyruqbozlik tizimi sababchi hisoblanadi. Infratuzilma yetarlicha rivojlanmagan taqdirda turistlar oqimini ko'paytirish va shungamos ravishda valyuta tushumini ko'paytirish mumkin emas. Bundan kelib chiqqan holda infratuzilmaning ahvoli turizmning rivojlanishi va mamlakat imidjini shakllantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Avvalo, shuni alohida qayd etish lozimki, O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishmaguncha turizmga yetarlicha e'tibor qaratilmagan. Respublikaning turistik salohiyati to'g'risda obyektiv ma'lumotlar va reklama umuman bo'lmagan. Turizm, xizmat ko'rsatish va ko'ngilocharlik infratuzilmasi rivojlanmagan, turistlarga xizmat ko'rsatish darajasi past bo'lib, jahonning yetakchi turistik korxonalari bilan aloqalar bo'lmagan desa ham bo'ladi. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki turizm bugungi kunda eng daromadli sohalardan biri sifatida tan olinmoqda. Shu jihatdan ko'pchilik davlatlar tomonidan turizmni rivojlantirish borasida bir qancha dasturlar ishlab chiqilmoqda. Mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini oshirishda turizm sohasi ham katta imkoniyatlarga ega. Asosan xalqaro turizmni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar natijasida ziyorat turizmi mamlakatimizda yetakchi sohalardan biriga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://oz.sputniknews-uz.com/tourism/20171004/6451356.html>
2. <http://tarix.uz/ru/imom-ismoil-al-buxoriy/>
3. Ўзбекистон республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати 2018 йил январь-декабрь
4. Turizmning iqtisodiyotdagi o'rni yoxud hududlarda ziyorat turizmini rivojlantirish imkoniyatlaridan foydalanish yo'llari. <http://zarnews.uz/uz/post/turizmning-iqtisodiyotdagi-o-rni-yoxud-hududlarda-ziyorat-turizmini-rivojlantirish-imkoniyatlaridan-foydalanish-yo'llari>